



YO'LOVCHILARGA TEMIR YO'L TRANSPORTI XIZMATLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOGISTIKA XIZMATLARINI JORIY ETISH

Erkinova Malika Farxod qizi

Toshkent davlat transport universiteti, assistenti

erkinovamalika2020@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo'l transportida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda tizimli logistika xizmatlarini joriy etish va logistic tamoyillarga asoslangan holda tashish raqobatbardoshligini oshirish yo'llari tahlil qilindi. Yo'lovchilarga ko'rsatiladigan servis xizmatlarini yaxshilashda logistik uslublarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: logistika tizimi, logistik xizmatlar sifati, integratsiyalashgan logistika, tizimli yondashuv, logistik modellashirish.

Temir yo'l transporti aholining transportga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, mamlakat iqtisodiyotida, uning faoliyat yuritishida va transport bozorini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Temir yo'l transportining yo'lovchilarni tashish majmuasi boshqa transport turlari o'rtasidagi o'zining raqobatbardoshligini faqatgina xizmatlar bozorini chuqur tahlil qilib, marketing tamoyillari va logistik tizimni joriy etishga tayangan holdagina oshirishi mumkin. Samarali logistika tizimlari bilan xalqaro bozorlarga chiqish, mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va shu bilan birgalikda tashqi savdoni rivojlantirishimiz mumkin ⁶⁵. Temir yo'l transportida tarkibiy islohotlar jarayonida yo'lovchi tashish kompleksining tashkiliy tuzilishini optimallashtirish va isloh qilishda logistika vazifalari va tamoyillariga asoslangan holda ko'rsatiladigan xizmatlarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.


Logistikaga nisbatan samaradorlikni quyidagi asosiy natijaviy ko'rsatkichlar sifatida aniqlash mumkin:

- ✓ kafolatlangan sifat;
- ✓ tashuvlarning aniq belgilangan jadvallarga rioya etilishi;
- ✓ tashish jarayonidagi qulaylik;
- ✓ xizmat ko'rsatishda zamonaviy innovatsiyalar mavjudligi;
- ✓ xizmatlarning to'g'ri va zarur joyda mavjudligi.

Logistika sifatini servis xizmatlari sifati bilan bog'lash tashishni boshqarishdagi eng samarali yo'ldir. Logistika xizmatlari sifatini boshqarish jarayonini quyida keltirilgan rasmda ko'rishimiz mumkin.

⁶⁵ Center for progressive reforms. O'zbekiston temir yo'llari: mavjud muammolar va takliflar.
<https://proreforms.uz/uz/publications/railway-transport-in-uzbekistan-challenges-and-recommendations-58>





1-rasm. Logistika xizmati sifatini boshqarish jarayoni.

Transport xizmatlari va xizmatlar sifatini monitoring qilishda integratsiyalashgan logistika tizimining strategiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lishi kerak.⁶⁶

- marketing tashkilotini tashkil etish va yo'lovchilarning talablarni tahlil qilish orqali xizmat ko'rsatishning yangi darajasini aniqlash va shu asosda integratsiyalashgan logistika tizimi yo'lovchilar talablarini talqin qilish, iste'molchilarning kutishlarini aniqlash, xizmat ko'rsatish texnologiyasini yo'lovchilarning o'zgaruvchan talablariga moslashtirish orqali yangi xizmat turlarini ishlab chiqish;

- xizmatning doimiyligini saqlash. Xizmat sifatining tashkiliy va texnologik bo'linmalarga nazorat ta'sirini rivojlantirish, sifat parametrlari va sertifikatlashtirish standartlarini baholashning yangi usullari joriy etish, tashkiliy va funktsional tuzilmasida o'zgarishlar kiritish lozim.

Shahar atrofidagi transport misolida tizimli yondashuv va logistika modellashtirish tamoyillarini qisqacha ko'rib chiqamiz. Yo'lovchining shahardan shahar atrofidagi manzilga borish jarayoni quyidagi logistika operatsiyalaridan iborat bo'lishi mumkin:

- uydan turib poyezdning jo'nash vaqti to'g'risida ma'lumot olish ;
- uydan shahar transportiga chiqish uchun borish va kutish;
- shahar transportiga chiqish va temir yo'l stantsiyasigacha yo'l haqi to'lash;
- kassa zalida chipta sotib olish ;

⁶⁶ Резер, Семен Моисеевич. Логистика пассажирских перевозок на железнодорожном транспорте = Logistics of passenger traffic at railways : [монография] / Резер С. М. ; Российская акад. наук. - Москва : ВНИИТИ РАН, 2007. - 514, [1] с. : ил.; 22 см.; ISBN 978-5-902928-16-4.



- poyezd kelganda perronga chiqish, poyezdga chiqish, belgilangan stantsiyaga poyezdda borish ;

- ushbu stantsiya platformasiga chiqish ;
- platformadan yashash yoki dam olish joyiga o'tish .

Tizimli yondashuv va logistik modellashirish temir yo'l transportida yo'lovchi tashish sifatini boshqarish tizimlarini yaratish uchun uslubiy asos bo'lib, ularning samaradorligini oshiradi. Temir yo'l uchun yo'lovchi tashish rentabelligini oshirishning umumiy maqsadi ikkita kichik maqsaddan iborat : yo'lovchi tashishdan tushadigan daromadlarni oshirish va yo'lovchi tashish xarajatlarini kamaytirish. Daromadlarni oshirish yo'lovchilar sonini ko'paytirish va yuqori sifatli xizmatlar uchun tariflarni oshirish orqali ta'minlanadi, bu esa yo'lovchi tashish sohasida marketing faoliyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi .

Demak, yo'lovchilarga ko'rsatiladigan servis xizmatlarini yaxshilashda va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda logistik uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- ✓ Texnik xizmat ko'rsatish, tozalik va tartibni saqlash;
- ✓ Tarmoqli rejalashtirish;
- ✓ Personal potensialidan to'g'ri foydalanish;
- ✓ Mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning yangi turlarini joriy etish.

Yo'lovchi tashishda xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishni takomillashtirish hamda yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha yangi tavsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ko'paytirish orqali temir yo'l transporti qo'shimcha mijozlarni jalb qilish va ularga xizmatlar ko'rsatish orqali uning rentabelligini oshiradi. Temir yo'l transporti korxonasi oldida xizmat ko'rsatish sifatini kerakli darajada saqlab turish, kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Center for progressive reforms. O'zbekiston temir yo'llari: mavjud muammolar va takliflar. <https://proreforms.uz/uz/publications/railway-transport-in-uzbekistan-challenges-and-recommendations-58>

2.Резер, Семен Моисеевич. Логистика пассажирских перевозок на железнодорожном транспорте = Logistics of passenger traffic at railways : [монография] / Резер С. М. ; Российская акад. наук. - Москва : ВНИИТИ РАН, 2007. - 514, [1] с. : ил.; 22 см.; ISBN 978-5-902928-16-4.

3.TEMIR YO'L TRANSPORTIDA XIZMATLAR VA LOGISTIKA o'quv qo'llanma . Fayzixodjayeva M.L .TDTU 2022.-206с.